Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 10

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-10

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона давлат университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Laziz Alimardonov
YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……5

2. Doniyor Jumaniyozov
XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI……11

3. Nilufar Djurayeva
O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL……17

4. Baxtiyor Mirkomilov
BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA……30

5. Murod Raxmatov
AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI……39

6. Nilufar Raxmatova
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI……46

7. Raxmatjon Saotboyev
XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR…53

8. Ikromjon Umarov
XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA SURXON-SHEROBOD VOHASIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA SUVDAN FOYDALANISHNING AN’ANAVIY SHAKLLARI……..58

9. Ra’no Xatamova
O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI…65

10. Raxim Xudoyberdiyev
TERMIZ VA CHAG‘ONIYON HUDUDLARIDA SIRLANGAN KERAMIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI……70

11. Муродилла Ҳайдаров
ОКТЯБР ТЎНТАРИШИ: БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ СОЦИАЛ ТАЖРИБАСИ ВА ҲАРАКАТЛАНТИРУВЧИ КУЧЛАР НИСБАТИ……76

12. Озоджон Қувондиқов
ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ ЎРТАСИДАГИ ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНРАД АДЕНАУЭР ЖАМҒАРМАСИНИНГ ЎРНИ……85

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Nilufar Mustaqimovna Raxmatova,
Navoiy davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: raxmatova.1983@bk.ru

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI

For citation: Nilufar M. Rakhmatova. PRINCIPLES OF EDUCATING YOUTH IN THE TRADITIONS OF NATIONAL IDEA, SPIRITUALITY, AND HISTORICAL HERITAGE IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 10.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.23674261

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada globallashuv jarayonida yoshlarni milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlar va tarixiy-madaniy meros asosida tarbiyalashning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida axborot makonining kengayishi, turli madaniy va g‘oyaviy oqimlarning jadallashuvi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarimizda milliy o ‘zlikni anglash, tarixiy xotira, ma’naviy, mafkuraviy immunitet, vatanparvalik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantitirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada tarixiy merosdan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning samarali shakl va usullari, milliy g‘oya va ma’naviyatning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda globallashuv sharoitida ularni uyg‘unlashtirish tamoyillari yoritilib, tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ekstremist, internet, konsepsiya, madaniyat, milliy o‘zlik, ma’naviyat, ma’rifat, muzey, prezident, fenomen, tarixiy meros, tarixiy xotira, qadriyat, milliy g‘oya.

Рахматова Нилуфар Мустакимовна,
Доцент Навоийского государственного университета,
доктор философии (PhD) по историческим наукам
Электронная почта: raxmatova.1983@bk.ru

ПРИНЦИПЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ТРАДИЦИЯХ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ, ДУХОВНОСТИ И ИСТОРИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ В ПРОЦЕССЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется социальная значимость воспитания молодежи на основе национальной идеи, духовных ценностей и историко-культурного наследия в процессе глобализации. В условиях глобализации расширение информационного пространства, интенсификация различных культурных и идеологических течений оказывают значительное влияние на мировоззрение, систему ценностей и социальную активность молодежи. С этой точки зрения одной из важных задач является формирование у нашей

молодежи национального самосознания, исторической памяти, духовного, идеологического иммунитета, патриотизма и уважения к общечеловеческим ценностям. В статье освещаются и анализируются эффективные формы и методы использования исторического наследия в образовательно-воспитательном процессе, воспитательные возможности национальной идеи и духовности, а также принципы их гармонизации в условиях глобализации.

Ключевые слова: глобализация, экстремист, интернет, концепция, культура, национальное самосознание, духовность, просвещение, музей, президент, феномен, историческое наследие, историческая память, ценность, национальная идея.

Nilufar M. Rakhmatova,
Associate Professor at Navoi State University,
doctor of philosophy (PhD) in historical sciences
Email: rahmatova.1983@bk.ru

PRINCIPLES OF EDUCATING YOUTH IN THE TRADITIONS OF NATIONAL IDEA, SPIRITUALITY, AND HISTORICAL HERITAGE IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

ABSTRACT

This article analyzes the social significance of educating youth based on national ideas, spiritual values, and historical-cultural heritage in the process of globalization. In the context of globalization, the expansion of the information space and the intensification of various cultural and ideological movements have a significant impact on the worldview, value system, and social activity of young people. From this perspective, one of the important tasks is the formation of national identity, historical memory, spiritual and ideological immunity, patriotism, and respect for universal human values among our youth. The article highlights and analyzes effective forms and methods of using historical heritage in the educational process, the educational potential of the national idea and spirituality, and the principles of their harmonization in the context of globalization.

Index Terms: globalization, extremist, internet, concept, culture, national identity, spirituality, enlightenment, museum, president, phenomenon, historical heritage, historical memory, value, national idea.

Kirish:

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, ta’lim va tarbiya tizimida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yoshlarning dunyoqarashi, bilim olish imkoniyatlari va ijtimoiy munosabatlari kengaymoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g‘ayri ixtiyoriy ta’sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlarga ham olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini ham kamaytirish va ijobiy ta’sirni kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Bu hodisani chuqur o‘rganmay turib, unga moslashish, uning yo‘nalishini tegishli tarzda o‘zgartirish mumkin emas. Uni chuqur o‘rganmaslik undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi, madaniyati, manaviyatini tog‘dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo‘yish bilan barobar deb taqqoslash mumkin.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek, “Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo‘llar bilan aholi, ayniqsa, hali “oq-

qora”ni farqlay olmaydigan yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmil- liy va kiber jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdid- lar xavfi tobora ortib bormoqda”. [1]

Talaba-yoshlar jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatini belgilovchi muhim ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Ularning mustaqil fikrlashi, tarixiy jarayonlarni anglash qobiliyati, milliy o‘zlikni his etishi va ijtimoiy mas’uliyati mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Shu sababli oliy ta’lim jarayonida talabalarning nafaqat kasbiy kompetensiyalarini, balki ma’naviy-axloqiy sifatlarini ham rivojlantirish zarur.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, globallashuv jarayonining yoshlar hayotiga ta’siri kuchayib borayotgani bilan belgilanadi. Bugungi talaba turli davlatlar, xalqlar va madaniyatlarning qadriyatlari bilan bevosita yoki bilvosita tanishish imkoniyatiga ega. Bu jarayon bir tomondan yoshlarning dunyoqarashini kengaytirsa, ikkinchi tomondan milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarni anglash masalasiga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

Bizning milliy ruhiy va tabiatimizga yot va begona bo‘lgan “ommaviy madaniyat”ni faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan natijaga erishib bo‘lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g‘oyalar asosida yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste’dod musobaqasida bellashuvga qodir bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashimiz zarur.

Globallashuv turli mamlakatlar iqtisodiyoti, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayib borish jarayoni ekan, keyingi davrlarda dunyo olimlari globallashuvga har xil ta’riflar bermoqdalar. Bu ta’riflarda globallashuv jarayoni muttasil davom etadigan tarixiy jarayon, universallashuv jarayoni, shuningdek, milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni deb ham ko‘rsatilmoqda.

XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan umumsayyoraviy targ‘ibotlar, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha “Globallashuv” atamasi bilan atalmoqda. Buni dastlab amerikalik olim T.Levittning 1983-yili “Garvard biznesrevyu” jurnalida chop etilgan maqolasida, keyin esa 1985 yilda amerikalik olim R.Robertson “Globalization” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani “odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi”ni aks ettirib, “dunyoning birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kuchayishini” ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etdi. [2] Hozirgacha bu sohada yaxlit konsepsiya yaratilmagan bo‘lsa-da, gumanitar ilmning turli sohalarida, chunonchi, ijtimoiy fanlarda ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari, namoyon bo‘lish shakllari har tomonlama o‘rganilmoqda. Islom Karimovning “Yuksak manaviyat – yengilmas kuch” asarida globallashuv mazmun-mohiyati quyidagicha tavsiflanadi: “Globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim”.[3]

Milliy g‘oya va ma’naviyat yoshlarni jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, tarixiy merosning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish talabalarda ajdodlar merosiga hurmat, milliy iftixor va kelajak uchun mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarixiy meros faqat o‘tmish haqidagi ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki bugungi avlodning ma’naviy dunyosini boyituvchi muhim tarbiyaviy manbadir. Ajdodlarimizning ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san’at, davlat boshqaruvi va ma’rifat sohalaridagi tajribasi yoshlarni ezgulik, ilmga intilish, adolat, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi fazilatlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Shu jihatdan globallashuv sharoitida talabalarni milliy g‘oya, ma’naviyat va tarixiy meros asosida tarbiyalashning pedagogik tamoyillarini aniqlash hamda ularni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar:

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va o‘zbek ma’rifatparvarlik tafakkuri vakillarining asarlarida muhim o‘rin egallagan.

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ilmiy va ma’naviy merosida inson kamoloti, axloqiy tarbiya, ilm-ma’rifat, adolat, ezgulik va jamiyat oldidagi mas’uliyat masalalariga katta e’tibor berilgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, ma’naviyat, milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlarda milliy qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, tarixiy merosdan ta’lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari o‘rganilgan.

Shu bilan birga, globallashuvning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri, raqamli axborot makonining kengayishi va yoshlarning qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar mazkur muammoni yangi metodologik yondashuvlar asosida o‘rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, milliy g‘oya, ma’naviyat va tarixiy merosni yagona tarbiyaviy tizim sifatida talaba-yoshlar tarbiyasiga tatbiq etish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

Tadqiqot jarayonida tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish, manbalarni o‘rganish kabi metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlarning uyg ‘unligi tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan yoritish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari:

Tadqiqot natijasida globallashuv sharoitida talabalarni milliy g‘oya, ma’naviyat va tarixiy meros asosida tarbiyalashda bir qator muhim tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyili talabalarni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ajratib qo‘ymaslik muhimdir. Milliy g‘oya va ma’naviyat yoshlarni o‘z tarixiy-madaniy ildizlarini anglashga yo‘naltirishi bilan birga, boshqa xalqlar va madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ham shakllantirishi lozim.

Bunday yondashuv talabalarda milliy o‘zlikni anglash bilan bir qatorda bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tarixiy xotira va vorisiylik tamoyili tarixiy meros yoshlar tarbiyasining muhim manbalaridan biridir. Ajdodlarning ilmiy, ma’naviy va madaniy faoliyatini o‘rganish talabalarda tarixiy xotiraning shakllanishiga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida tarixiy shaxslar faoliyati, qadimiy ilmiy-ma’rifiy markazlar, yozma manbalar, me’moriy yodgorliklar va xalqning an’anaviy qadriyatlarini o‘rganish orqali avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorisiylikni ta’minlash mumkin.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya tamoyili yoshlarni milliy g‘oya asosida tarbiyalash faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi kerak. Mazkur bilimlar talabaning kundalik hayoti va xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy fazilatlar bilan bog‘lanishi zarur.

Halollik, adolat, mas’uliyat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik kabi fazilatlarni shakllantirish ma’naviy tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Tarixiy merosni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish tamoyili tarixiy merosdan foydalanishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishi mumkin. Masalan, virtual muzeylar, elektron kutubxonalar, raqamli arxivlar, multimedia taqdimotlari va interaktiv ta’lim platformalari orqali tarixiy manbalarni o‘rganish talabalarning mavzuga qiziqishini kuchaytiradi.

Ta’lim va tarbiyaning uzviyligi tamoyili milliy g‘oya, ma’naviyat va tarixiy meros masalalarini alohida tadbirlar doirasidagina emas, balki o‘quv fanlari mazmuni bilan uzviy bog‘liq holda olib borish samarali natija beradi.

Muhokama. Globallashuv jarayonini faqat salbiy yoki faqat ijobiy hodisa sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo‘lishi mumkin. Globallashuv yoshlar uchun yangi bilimlar, xalqaro muloqot va madaniy tajribalarni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, turli axborot va qadriyatlarning tezkor tarqalishi yoshlarning ma’naviy dunyosiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonining vazifasi yoshlarni tashqi ta’sirlardan butunlay ajratish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, o‘z milliy qadriyatlarini anglash

va boshqa madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Bu jarayonda milliy g‘oya, ma’naviyat va tarixiy meros o‘zaro bog‘liq pedagogik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Tarixiy meros yoshga o‘zining ildizlarini anglashga yordam bersa, milliy g‘oya uning jamiyatdagi o‘rnini anglashiga ko‘maklashadi. Ma’naviyat esa ushbu bilim va qarashlarning shaxsning kundalik hayoti, axloqi va faoliyatida namoyon bo‘lishiga zamin yaratadi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda, bir tomondan, globallashuv jarayonining afzalliklaridan oqilona foydalanish, ikkinchi tomondan uning salbiy tasirini bartaraf etish borasida pishiq puxta o‘ylangan siyosat olib borilmoqda.

Shu kunlarda kompyuter texnologiyasi shiddat bilan kuchayib bormoqda. Bu esa talim tizimida katta o‘zgarishlar bo‘layotganligidan dalolat beradi. Keyingi 70-80 yil orasida kompyuter texnologiyalarining o‘sishi buning yorqin dalilidir. Agar 1937-1942-yillarda AQShning Ayova shtati universitetida birinchi EVM yaratilgan bo‘lsa, 1965-yilda 2 EVM o‘rtasida telefon aloqasi o‘rnatilgan, 1974-yilda esa “Internet” termini kashf etilgan. 1984-yilga kelib, 1000(mingta) lokal kompyuter unga ulangan, 1992-yilga kelib ulangan kompyuterlar soni 1 milliondan oshgan. Butun Yer shari aholisining 6 milliard nafari xalqaro internet tarmog‘idan foydalanmoqda. So‘nggi bir yil ichida global tarmoqqa 240 milliondan ortiq kishi qo‘shildi. Ma’lum qilinishicha, sayyora aholisining taxminan to‘rtdan uch qismi, internetdan foydalanmoqda. ITU hisobotida internet foydalanuvchilari sonining sezilarli o‘sishi qayd etilgan bo‘lsa-da, ayni paytda, raqamli tafovutning chuqurlashib borayotganiga ham e’tibor qaratilgan. [4]

O‘zbekiston statistika agentligining eng so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 10 yosh va undan katta yoshdagi aholining internetdan foydalanish darajasi 97,3 foizga yetdi. 2026-yil boshiga kelib, respublikada faqatgina mobil internet abonentlari soni 33,3 milliontani tashkil etgan.

Hozirgi kunda ayrim kuchlar xalqaro axborot almashinuvi jarayonida internet tizimi orqali . ataylab informatsion xurujlar – ayg‘oqchilik, siyosiy terrorizm, diniy muttaasiblikni targ‘ib etib, internet saytlarida har xil vahshiylik, behayolik kabilarni targ‘ib qilib kelmoqdalar. Bu materiallarni yoshlar to‘g‘ri qabul qilib, yaxshisi-yu yomonini ajrata oladilarmi? To‘g‘ri xulosa chiqara oladilarmi? Shuning uchun ham biz milliy g‘oya targ‘ibotiga, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligiga alohida e’tibor berishimiz, yoshlarimizda milliy g‘urur va milliy o‘zlikni anglashni shakllantirib, ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashda tarixiy merosdan ham chuqur foydalanishni kuchaytirishimiz dolzarb vazifadir. Keyingi paytlarda aqidaparast, terrorchi unsurlar yosh yigit-qizlarning pulga o‘chligi, bilimsizligidan foydalanib, ularni o‘z tomoniga og‘dirib, jar yoqasiga olib borib qo‘ymoqda, jinoyatchilik yo‘llariga boshlamoqda. Buni yoshlar ommaviy axborot vositalari sahifalarida, ijtimoiy btarmoq, radio va televidenie ko‘rsatuvlarida ko‘rib xulosa chiqarishlari lozim. Shuning uchun ham bugun zamonaviy axborot texnologiyalari va mexanizmlarini, mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni takomillashtirib borish zarur. Ayniqsa, ota-ona, oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g‘urur, komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq tuyg‘u va tushunchalarni barkamol avlod qalbi va ongiga ta’sirchan va zamonaviy uslublar orqali singdirishimiz zarur.

Yoshlarimizni qutlug‘ qadamjolarga hurmat, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, o‘zaro mehr-oqibat ruhida tarbiyalash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni keng ko‘lamda amalga oshirishni dolzarb vazifa ekanligiga e’tibor qaratish zarur.

Globallashuv jarayonida yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish ulardagi milliy g‘ururni yuksaltirish va ularni milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi ruhida, tarixiy qadriyatlar orqali tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada kuchaytirishimiz – eng muhim vazifadir.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev uqtirayotganlaridek: “Tasavvur qilaylik, bog‘imizda bir daraxtga qurt tushsa yoki dalamizda bug‘doyga zang tushsa, darrov chorasini ko‘ramiz. Lekin ma’naviyatimizga “qurt tushsa”, nima uchun e’tibor qilmaymiz? Axir, bu “qurt” ertaga davlatimiz, jamiyatimiz poydevorini zaiflashtiradi, oqibati og‘ir muammolarni keltirib chiqaradi”. [5]

Milliy g‘oya va milliy g‘ururni tarixiy an’analar asosida aholiga yanada chuqurroq singdirish va uni yuksak darajasiga ko‘tarish uchun yangi innovatsion texnologiyalar bilan ish tutgan zarur. Bu ish eskirgan shiorlar, dabdabali yig‘ilishlar, haybarakallachilik bilan o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar orqali emas, balki tarixiy udumlar, urf-odatlar milliy g‘ururni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi lozim. Mustaqillik bayrami, Navro‘z va hayit bayramlari, Vatan xizmatiga yuborish arafasidagi tadbirlar, Hosil sayli, Xotin-qizlar bayrami, O‘qituvchi va murabbiylar bayrami, Konstitutsiya nishonlanadigan kun, aholining to‘y marosimlari, yubileylari, Xotira va qadrlash kunlari, hashar, muqaddas qadamjolarga ziyoratlar shular jumlasidandir.

Hozirgi vaqtda Yangi O‘zbekistonimizda davlat muhofazasiga olingan jami moddiy madaniy meros obyektlari soni 8 210 tadan ortiqni tashkil etadi. tashkil etadi. Ularning aksariyati Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent va boshqa viloyatlarda joylashgan. Navoiy viloyatida jami 437 ta moddiy-madaniy meros obyekti sifatida ro‘yxatga olingan. Bulardan 340 tasi arxeologiya yodgorlilari, 70 tasi arxitektura, 22 tasi monumental san’at yodgorliklari va 5 ta diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. [6] Yurtboshimiz Navoiy viloyatining tarixiy obidalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. U kishining tashabbusi bilan 2019-yil 12–13-mart kunlari Navoiy viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshirig‘i va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 11-sonli yig‘ilish bayonining 107-bandiga muvofiq “Buyuk Ipak Yo‘li”ning Zarafshon-Qoraqum qismida joylashgan “Qosim Shayx”, “Mirsaid Bahrom”, “Raboti Malik”, “Sardoba”, “Mavlono Orif Deggaroniy” madaniy meros obyektlarini YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi yodgorliklari ro‘yxatiga kiritish vazifasi topshirilgan. Bunday joylar barkamol avlodni tarbiyalash, talabalar ongi va shuuriga Vatan mehrini singdirishda alohida ahamiyatga molikdir. Ayniqsa, Navoiy viloyatidagi muzeylarda oliy talim muassalari bilan hamkorlikda turli manaviy-marifiy tadbirlar o‘tkazish talabalarni milliy g‘oya va tarixiy meros tamoyillari asosida tarbiyalashda muhim o‘rin egallaydi.

Xulosa:

Globallashuv sharoitida talabalarni milliy g‘oya, ma’naviyat va tarixiy meros asosida tarbiyalash zamonaviy oliy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur jarayon talabalarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, vatanparvarlik, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, tarixiy vorisiylik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, mustaqil fikrlash, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hamda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi asosiy tamoyillar sifatida qaralishi mumkin.

Tarixiy merosdan samarali foydalanish talabalarning o‘tmishni bilishi bilangina cheklanmasdan, undan bugungi kun va kelajak uchun zarur ma’naviy xulosalar chiqarishiga imkon yaratishi lozim. Shu bois oliy ta’lim jarayonida tarixiy merosni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, talabalarni ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatga jalb etish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida ma’naviy barkamol, tarixiy xotiraga ega, milliy qadriyatlarni anglaydigan va zamonaviy dunyoda mustaqil fikrlay oladigan talaba shaxsini shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi zarur.

Shuningdek, Prezidentimizning “Hech qachon unutmasligimiz kerak: ma’naviyat – bu, avvalo, insonlar o ‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlardir. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi” [7], –degan fikri yoshlar tarbiyasining strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Demak, globallashuv sharoitida talaba-yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, ularni milliy g‘oya va tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, ayni paytda zamonaviy va ochiq dunyoqarashga ega shaxs sifatida shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lishi lozim. Mustahkam ma’naviy poydevorga ega, tarixini anglaydigan va kelajakka mas’uliyat

bilan qaraydigan yoshlar jamiyatning barqaror taraqqiyoti va davlatning istiqboli uchun muhim ma’naviy-intellektual salohiyatni shakllantiradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – B. 263.

2. https://oyina.uz/uz/teahause/1482 Murojaat qilingan sana: 03.09.2026.

3.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2018. – B. 111.

4. https://daryo.uz/2025/11/25/dunyo-boylab-internet-foydalanuvchilari-soni-6-milliarddan-oshdi/ Murojaat qilingan sana: 27.12.2025.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – B. 269.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti: https://stat.uz/uz/ Murojaat qilingan sana: 15.03.2025.

7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – B. 267.

8. Madrahimov J. Globallashuv jarayonlarining yoshlar ma’naviy hayotiga ta’sirining asosiy yo‘nalishlari va ularning xususiyatlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 2024. 4-son. – B. 5

9.Арсланова З. Совершенствование системы работы с молодежью: на основе международного опыта. Общество и инновации. 2024, апрель. – С. 4-5.

10.Arslonov Z. Globallashuv jarayonida yoshlar milliy-ma’naviy o‘zligini saqlashning asosiy omillari va mexanizmlari. Strategik kuch. 2025, 3-son. –B.29-33.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000